min bazasi, kontekstga asoslangan qidiruv tizimi, tez-tez uchraydigan xatolar bo‘yicha ogohlantirish funksiyasi va mashinaviy tarjima to‘ldirgichi (MT post-editing support) imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi.[1]

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu tadqiqot rasmiy hujjatlar tarjimasidagi lingvokulturologik va huquqiy nomuvofiqliklar O‘zbekistonda hali ma’lum darajada hal etilmagan tizimli muammo ekanligini empirik tarzda tasdiqladi. So‘rovnoma, hujjat tahlili va 2018–2024-yillar statistikasi asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: rasmiy hujjatlar tarjimasidagi eng keng tarqalgan muammo terminologik ekvivalentsizlik (78%) bo‘lib, uni huquqiy tizimlar muvofiqligi muammosi (71%) va madaniy so‘zlarga oid huquqiy tushunchalar bo‘shlig‘i (65%) tashkil etadi. Standartlashtirilgan tarjima amaliyotlari barcha hujjat turlarida aniqliqni 19–33 foiz punktga oshirishga imkon beradi, bu esa tizimiy yechimlarning samaradorligini isbotlaydi. Joriy tarjima xato darajasi (9.8%) ISO 17100 standartida ko‘rsatilgan maksimal me’yordan (2%) 4.9 baravar yuqori bo‘lib, favqulodda islohot zaruratini ko‘rsatadi. Taklif etilayotgan uch bosqichli yechimlar tizimi, Milliy Huquqiy Tarjima Glosariysi, yagona sertifikatlash tizimi va raqamli terminologik baza xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashgan holda O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bowker L. (2023). Computer-Aided Translation Technology. A Practical Introduction (2nd ed.). Ottawa, University of Ottawa Press, 258 p.

(2). Clevedon. Translating Law. Multilingual Matters, (2007), 242 p.

(3). Gemar J.-C. (2002). Le plus et le moins–disant culturel du texte juridique. Meta: Translators’ Journal, 47(2), p. 163–176.

(4). Garzone G. Legal Translation and Functionalist Approaches. A Contradiction in Terms? ASTTI/ETI Proceedings, (2000), p. 395–414.

(5). Harvey M. What’s So Special About Legal Translation? Meta: Translators’ Journal, (2002). 47(2), p. 177–185. https://doi.org/10.7202/008007ar

(6). Mahkamov N. O‘zbek huquqiy terminologiyasining ingliz va rus tillaridagi ekvivalentlari. Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, (2019), 310-bet.

(7). O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (2023). Rasmiy tarjima xizmatlari statistikasi. Toshkent, Adliya vazirligi nashriyoti.

(8). O‘zbekiston Respublikasi Notarial palatasi (2022). Rasmiy tarjima va notarial tasdiqnoma yo‘riqnomasi. Toshkent, Notarial palata nashriyoti.

(9). Šarčević S. (1997). New Approach to Legal Translation. The Hague, Kluwer Law International. 308 p.

(10). Salehi M., Sahragard R. (2015). Legal Translation: Challenges and Strategies. Iranian Journal of Applied Language Studies, 7(2), p. 93–118.

(11). Tiersma P M. (1999). Legal Language. Chicago, University of Chicago Press. 313 p.

(12). United Nations Translation Service (2022). UN Terminology Database (UNTERM). Methodology and Standards. New York, United Nations Secretariat.

(13). European Union Translation Centre (2023). EU Multilingual Legal Glossary. Standards and Best Practices. Luxembourg: Publications Office of the EU.

(14). ISO 17100:2015. Translation Services – Requirements for Translation Services. Geneva, International Organization for Standardization.

(15). O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (2021). “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi, Toshkent, UZINFOCOM.

(16). NAATI (2023). Certification Standards for Legal Translation. A Comparative Global Analysis. Canberra, National Accreditation Authority for Translators and Interpreters.

(17). O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (2020). Tarjimonlik ixtisosligi o‘quv dasturi va malaka talablari, Toshkent.

Otajonova Lola Ozodovna (UrDU dotsenti v.b., PhD)

TARJIMADA TARIXIYLIKNI IFODALASH USULLARI VA MURAKKABLIKLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarixiylikni tarjimada ifodalashning ahamiyati, o‘ziga xos xususiyatlari hamda tarjima jarayonidagi asosiy usullari haqida kengroq yoritiladi. Tarixiy koloritni saqlab qolishda davr ruhi va milliy-madaniy unsurlarini to‘g‘ri tarjima qilish masalalariga bag‘ishlanadi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, badiiy tarjima, tarixiy kolorit, tarjima usullari, transliteratsiya, analogiya.*

[1] Bowker L. (2023). Computer–Aided Translation Technology. A Practical Introduction (2nd ed.). Ottawa, University of Ottawa Press. 258 p.

МЕТОДЫ И СЛОЖНОСТИ ВЫРАЖЕНИЯ ИСТОРИЧНОСТИ В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. *В данной статье подробно освещается значение передачи историчности в переводе, её специфические особенности, а также основные методы, применяемые в процессе перевода. Особое внимание уделяется вопросам сохранения исторического колорита, в частности правильной передачи духа эпохи и национально-культурных элементов в переводе.*

Ключевые слова*: перевод, художественный перевод, историческая окраска, приемы перевода, транслитерация, аналогия.*

METHODS AND COMPLEXITIES OF EXPRESSING HISTORICALITY IN TRANSLATION

Annotation. *This article provides a detailed overview of the importance of representing historicity in translation, its distinctive features, and the main methods used in the translation process. Particular attention is given to the issues of preserving historical color by accurately conveying the spirit of the period as well as national and cultural elements in translation.*

Keywords: *translation, literary translation, historical coloring, translation methods, transliteration, analogue.*

Kirish. Barcha sohalar kabi tarjimashunoslik fani borasida ham ko‘plab tadqiqotlar olib borilyapti. Biz bu sohadagi ilmiy izlanishlarning ba’zilarini adabiy-tarixiy, ba’zilarini lingvistik yo‘nalishda amalga oshirilayotganligining guvohi bo‘lamiz. Adabiy-tarixiy yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarda tarjima qilinayotgan asarning badiiy jihatlariga e’tibor bergan holda asarning lingvistik xususiyatlarini nazardan chetda qoldirsalar, asarning lisoniy tomonlarini o‘rganuvchi tadqiqotchilar esa, manba tili va tarjima tili vositalarining tarjimadagi lisoniy muvofiqliklaridan kelib chiqib, badiiy-estetik jihatiga e’tibor qaratmaydilar. Xalqning moddiy, ma’naviy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayotini aks ettirgan til birliklarining tarjima tili vositalarida qay darajada ifodalanish tamoyillari so‘nggi yillarda tarjima sohasi vakillarining ilmiy tadqiqot obyektiga aylandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bizga ma’lumki, realiyalar badiiy asarda makon va zamon koloritini yaratadi. Shu o‘rinda, S.G.Ter-Minasovaning quyidagi fikrini keltirish joiz deb bildik: “Adabiyot zamon sinovidan o‘tib, demak, tili eskirgan taqdirdagina mumtoz adabiyot bo‘lib qoladi... Hayot va madaniyatdagi o‘zgarishlar bilan birga til ham eskiradi” [10; 89-b.]. Tarixiy davrni aks ettiruvchi asarlar zamonaviy asarlarga qaraganda birmuncha murakkab to‘siqlarga ega bo‘lib, ularni bir tildan boshqa tilga o‘girish – undan ham mushkul masala. Chunki bunda tarixiy davrni, milliy koloritni, qahramonlarning nutqini berish, qo‘shimcha ravishda, tarixiy o‘tmish ruhini ham beradigan lisoniy-uslubiy yechimlar topish muammosi ko‘ndalang turadi [13; 12-b.].

Realiyalar haqida fikr bildirganimizda, “kolorit” tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tish o‘rinli hisoblanadi. *Kolorit* termini (italiyancha *colorito*, lotincha *color* – rang) haqida abadiyotshunoslikda turlicha izohlar uchraydi. S.P.Belokurovaning ta’kidlashicha, “kolorit – badiiy asarning emotsional komponentidir” [2;320-b.]. Tarixiy asar tilining badiiy sifatlaridan biri so‘z tanlovi bo‘lib, ular yordamida kerakli uslub va koloritni yarata bilishdan iborat. Shu bilan birga, badiiy asar leksikasi shu xalqning tarixi haqida ham guvohlik beruvchi manba sanaladi. S.Vlaxov va S.Florin uqtirib o‘tganlaridek, “kolorit – aynan realiyaning o‘ziga xos belgilaridan bo‘lib, “konnotatsiya” tushunchasiga nisbatan ancha keng ma’no kasb etadi” [3;38-b.].

Tarixiy asarlar badiiy-uslubiy xususiyatga ega matnlar sifatida tavsiflansa ham, odatda, bunday asarlarning o‘quvchisi tarixchi yoki shu sohaga yaqin mutaxassislar bo‘ladi. Shuning uchun bunday asarlarni tarjima qilayotgan tarjimon shu fan doirasida kerakli bilimga ega bo‘lishi bilan birga, shu xalqning murakkab va o‘ziga xos lug‘at boyligini tushunish qobiliyatini ham shakllantirgan bo‘lishi shart. Tarjimashunos N.M.O‘rmonova asliyatdagi *tarixiy, milliy, diniy, harbiy* leksikaning vaqt o‘tishi natijasida o‘zgarishlarga uchrashi hamda milliylikni tarixiy asarlar mutolaasiga oid qiyinchiliklar qatorida sanaydi. Demakki, “voqealar tasviri bizdan qanchalik uzoqroq vaqtga borib taqalsa, tarjimonga o‘sha davr xalq tili, uslubi va urf-odatlarini qayta yaratish bilan bog‘liq masalalar shunchalik ko‘p qiyinchilik tu‘gdiradi” [6;117-b.].

Arxaik leksikaning tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqi N.O‘rmonova [11; 120-b.], Sh. Isakova [4;117-b.], D.Xoshimova [12;230-b.] kabilarning ilmiy izlanishlarida ko‘zga tashlanadi. Jumladan, D.Xoshimova arxaizmlarning fransuz tilida aks etishi va tarjimada ifodalanishi yuzasidan fikrlar bildirgan [12;209-b.].

O‘tmish voqeligini nomlash zarurati bilan hozirgi tilda ishlatilgan tarixiy leksik birlik *istorizm* deyiladi (yunoncha *historia* – tekshirish, tadqiqot) [9;106-b.]. Istorizmlar bugungi tilimizda o‘z sinonimlariga ega bo‘lmagan yagona birliklar sanaladi. Shuningdek, lingvistik terminlar lug‘atida “istorizm – es-

kirgan deb hisoblangan tushuncha va buyumlarni anglatuvchi birliklar nomlari" tarzida izohlanadi. [1; 272-b.].

O'zbek tilshunosligida eskirgan til birliklari bo'yicha E.S.Qilichev maxsus tadqiqot olib borib, o'ziga xos ilmiy fikr-mulohaza va xulosalarini "S.Ayniy prozasida arxaizm va istorizmlar" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ko'rsatib o'tadi. Olim istorizm va arxaizmlar bilan birga eskirgan so'zlar qatoriga xronizmlar ham kirishi haqida ilmiy-nazariy fikrlar bildiradi [8;32-b.]. H.Jamolxonov arxaizm va istorizmlar borasidagi izlanishlarida jamiyatda bo'lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma'rifiy sohalardagi islohotlar tilning lug'at boyligida yangi-yangi so'z va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda, ma'lum so'z-leksemalarning eskirishini ta'kidlab o'tadi [5;204-b.].

N.M.O'rmonova tarixiy-arxaik leksikaning adekvat tarjimasiga erishish borasida quyidagilar zarurligini e'tirof etadi: "a) mutarjim, eng avvalo, asliyat tilining ham diaxronik, ham sinxronik qatlamini bilishi, uning serjiloligini, serqirraligini his qilishi, tasviriy vositalarning eng nozik va murakkab tomonlarini tushuna olishi; b) asliyatda tasvirlangan xalq turmush tarzining o'ziga xos tomonlari, diniy e'tiqodlari, an'analari, urf-odatlari, udumlari, marosimlari, etnografik qiyofasi haqida tasavvurga ega bo'lishi; d) klassik asarda tasvirlangan tarixiy davr ruhi, tarixiy shaxslar, unda tilga olingan xalq tarixining asar yaratilgan davrga oid turmush tarzi va ular haqidagi ilmiy manbalar bilan tanish bo'lishi kerak" [11; 47-b.]. Shunday ekan, bunday til birliklari muqobilsiz leksika tarzida tarjimondan voqealikni bir tildan ikkinchi tilga o'girishda kompleks yondashuvni qo'llagan holda, barcha manbalarga murojaat qilishni talab qiladi.

S.Vlaxov va S.Florinlar tarixiy davr ruhini ifodalovchi ikki tip asarlarda tarixiy realiyalarni uchratish mumkin ekanligini ta'kidlashgan: o'tmish adiblarining "arxaik" asarlarida va zamonaviy yozuvchilar uzoq va yaqin o'tmishga murojaat etib "arxaiklashtirilgan" asarlarida uchraydi. Bundan tashqari, "arxaiklashtirilgan" asarlarning o'zida ham tarixiy realiyalar ifodasining "ikki planlik" xususiyati mavjud:

1) muallif o'z davrining realiyalaridan foydalanib, zamonaviy tilda asar yozadi, vaqt o'tishi bilan bu zamonaviy realiyalar tarixiylik kasb etadi;

2) tarixiylikni ifodalash maqsadida muallif atayin o'zi tasvirlayotgan davr realiyalarini matnga kiritadi, bu muallif uchun ham tarixiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Realiyalar tarjimasi borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilganligiga qaramasdan, ularning tarjima usullari to'g'risida aniq bir to'xtamga kelinganicha yo'q. Realiyalar tarjimasidagi muhim 2 ta qiyinchilik "1) tarjima tilida muloqot qiluvchilar nutqida realiyalar ifodalovchi obyektning yo'qligi sababli bu birliklarning ekvivalenti – analogi mavjud emasligi; 2) predmetning ma'nosi bilan birga realiyaning milliy va tarixiy koloritni ifodalashdagi zaruratining mavjud emasligi" [3;133-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiallari uchun Munis va Ogahiylar qalamiga mansub "Firdavs ul-iqbol" asaridagi tarixiy realiyalar tanlab olingan va ularning o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot ishida tahlil jarayonida lingvistik tadqiqot metodlaridan, asosan, qiyosiy tahlil va tasviriy metodlardan foydalanilgan.

Tasviriy metodning asosiy vazifasi shundaki, u muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarni tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o'rnini, qo'llanishini, tuzilishini, o'ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi

Tahlil va natijalar. O'zbek tarjimashunosligida realiyalarning tarjima usullari borasida E.Ochilovning takliflari o'rinli hisoblanadi. "Xos so'zlar tarjimasida, asosan, quyidagi uch usul qo'llaniladi: Xos so'zlar tarjimasida, asosan, quyidagi uch usul qo'llaniladi: 1) *transliteratsiya;* 2) *analogiya;* 3) *yangi so'z va so'z birikmasi yasash*" [7;84-b.].

Tarixiy realiyalarning *transliteratsiya* usuli orqali tarjima qilinishi keng tarqalgan. Asliyatda qo'llanilgan madaniy birliklarning tarjima tilida mavjud emasligi sababli transliteratsiya usulidan foydalaniladi. Bu bilan tarjimon kitobxon lug'at boyligini oshirishga hamda dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi: "Quvanch Sufi *Vekil*" (FI, 217). "Quvonch so'fi *vakil*" (FI, 223). Ushbu misolda keltirilgan *vakil* realiyasi tarjima tiliga transliteratsiya usuli yordamida o'girilgan. Bizga ma'lumki, transliterastiya usuli yordamida chet tillardan kirib kelgan so'zlar davr o'tishi bilan insonlarning kundalik muloqotida qo'llanilib, asta-sekin lug'at tarkibiga singib ketadi. Ba'zan asliyatdagi har bir milliy-tarixiy realiyalarning transkripsiya yoki transliteratsiya qilinishi ularning ma'nosini ochishga to'sqinlik qiladi va hikoyaning umumiy ohangiga mos kelmasligiga olib keladi. Misol tariqasida bugungi kunda har birimizning kundalik nutqimizda ishlatiladigan so'zlarni keltirishimiz mumkin: *hot dog, hamburger, kebab, chips, Ramadan, Fotiha, zakat* va boshqalar. E.Ochilov xos so'zlar tarjimasi xususida quyidagicha fikr bildira-

di: "*Transliteratsiya* – biror yozuv harflarini boshqa yozuv harflari bilan berish, ko'rsatish. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va milliy xos so'zlarni boshqa til belgilari yordamida aynan ifodalash" [7;84-b.]. Albatta, so'zlarning qay ma'noni ifodalayotganligini anglashimiz uchun kontekstga murojaat qilishimiz lozim. Bu borada tarjimashunos olim P.Nyumerk ilmiy matnlarda bu birliklar transliteratsiya usuli bilan tarjima qilinsa, badiiy asarlarda ularni tasviriy usullar orqali ifodalanishi mumkinligini ta'kidlaydi [14;101-b.].

Transliteratsiyadan keyingi o'rinda turuvchi tarjima usuli *kalka* hisoblanib, manba tilidagi realiyaning tarjima tiliga ko'chganda mazmun va o'ziga xosligini saqlab qolishning samarali usullaridan biri sanaladi. *Yangi so'z va so'z birikmasi yasash* usuli yarim kalka va kalka usullarini o'z ichiga oladi. Tarixiy asardan keltirilgan quyidagi misolda asliyatdagi *qullar navkari* realiyasi tarjima tiliga kalka yo'li orqali ifodalash bilan birga tarixiy koloritni saqlab qolishda adekvat tarjimaga erishilgan: "... jami *qullar navkari* bila" (FI, 440). "...with all the *slave troops (qullar nokeri)*" (FI, 473).

Tarjimonlar asliyatdagi realiyalarni tarjima tilidagi mavjud o'xshash vazifadoshlari bilan ko'pchilik holatlarda almashtiradilar. Analog usuli yordamida o'girilgan leksik birlik asliyatdagi birlik bilan to'liq moslikka ega bo'lmaydi: "seized *the officers* by a ruse*"* (FI, 213): *"sarkardalarni* hiyla bila tutib" (FI, 220).

Xulosa va takliflar. Tarixiy realiyalarni tarjima qilish jarayonida tarjimon ma'lum qoidalarga rioya qilib, ularning semantik mazmunini maksimal darajada saqlashga harakat qiladi va tarixiy asarning kitobxon tomonidan adekvat tarjima deb hisoblanishiga o'z hissasini qo'shadi. Shu bilan birga, tarjima matnini xorij madaniy belgilari – ekzotizmlar bilan to'ldirib tashlash tarafdori ham emasmiz. Yana tarixiy realiyalarni barcha hollarda neytral muqobillari, ya'ni, kalka va tavsifiy usullar orqali ifodalanishi ham tog'ri qaror emas, bizningcha. Chunki bunday usullar bilan realiyalarning ifodalanishi har doim ham asar muallifining maqsadlariga muvofiq kelavermaydi. Realiyalar tarjimasida duch kelgan har qanday holatni bir urunish bilan hal qilsa bo'ladigan, avvaldan yozib qo'yilgan tayyor qolip, qonun-qoida mavjud emas. Tarjimon har bir leksik birlikni kontekstidan kelib chiqib tarjima qilishga bel bog'lashi kerak degan fikrdamiz. Zero, har bir realiya tarjima va tarjimon uchun alohida bir muammodir. Realiyalar tarjimasi muammolarini nazariy jihatdan oydinlashtirish uchun mahoratli tarjimonlar tajribalariga tayanish eng to'g'ri yo'ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, "Сов. Энциклопедия", 1966, 272 с.

(2). Белокурова С.П. Словарь литературоведческих терминов. Автор-составитель. СПб., "Паритет", 2007, с. 320.

(3). Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. Москва, "Международные отношения', 1980, с. 38.

(4). Исоқова Ш.И. Бадиий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс этилиши. Филол. фан. номз. ...дисс., Тошкент, 2004.

(5). Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "Talqin", 2005, 204-bet.

(6). Newmark P.A Textbook of translation. Herdford-shire, Prentice Hall, 1988, p. 101.

(7). Нўмонов Д. Таржимада давр руҳини ифодалаш. Таржима муаммолари. 3 к. К.2, Самарқанд, 1991, 117-бет.

(7). Ochilov E., Xodjayeva N. Tarjima nazariyasi (o'quv qo'llanma). Toshkent, "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 84-bet.

(8). Қиличев Э.С. Айний прозасида архаизм ва историзмлар. Филол. фан. номз. …дисс., Тошкент, 1968, 32-bet.

(9). Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Тошкент, "Университет", 2010, 106-бет.

(10). Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. Москва, "Слово", 2000, с. 89.

(11). Ўрмонова Н.М. Таржимада тарихий-архаик лексикани акс эттириш принциплари ва таржима аниқлиги. Филол. фан. номз. …дисс., Тошкент, 2008.

(12). Хошимова Д. "Бобурнома" матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Филол. фан. докт. (DSc) ...дисс., Тошкент, 2018.

(13). Яркинова Б.Б. Туркий тиллардан таржимада тарихий колоритнинг акс эттирилиши (қирғиз адиби Т.Қосимбековнинг "Синган қилич" романи таржимаси мисолида). Филол. фан. номз. …дисс., Тошкент, 2002, 12-бет.